

MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY HAYOTI VA IJODIGA NAZAR

Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi: **Ahmedova Gulnoza**

Urganch davlat pedagogika instituti talabasi: **Avezova Mastura**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek realizmining asoschilaridan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyl, uning ziddiyatli hayoti va ijodiy yo‘li haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Muqimiyl yashab ijod qilgan davrning adabiy hayoti va bu muhitning Muqimiyl ijodiga ta’siri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: shoir, satirik, shoirli iqtidori, madrasa, o‘zbek adabiyoti, demokratik yo‘nalish, g‘azal, muxammas, hajviy asar

Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan. Muqimiyl real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan. Muqimiyl dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning hajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan («Tanobchilar» va boshqa) «Saylov», «Dar mazammati zamona» va boshqada o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatilgan. Shoirning o‘zi yozishicha, “Aynan yoqimsiz Qo‘qon aslzodalari meni nuqtai nazarlarimni ko‘rib chiqishga va o‘zimdagি yangi axloqiy va adabiy qarashlarni rivojlantirishga imkon berdi. Hafsalamning pir bo‘lishi menga katta yordam berdi” Ko‘rinib turganidek, Muqimiyning qalami o‘tkirlanishida ijtimoiy muhit alohida o‘rin tutadi. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o‘rganishda uning muallifi haqidagi ma’lumotlar ham alohida o‘rin tutadi. Mazkur ma’lumotlar asosan qayerdan olinadi? Ularni adiblarning o‘zlari yozib qoldirgan tarjimaiy hollardan, adib

VOLUME-2, ISSUE-3

haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanishbilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek adiblarimizning bizga qoldirib ketgan nodir ma'naviy boyliklardan bahramand bo'lish, har bir tarixiy davr ruhini bilish, xalqimizning tur mush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ko'proq adib orqali kitobxonlar qalbiga yetib boradi. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. Shuningdek, biografik ma'lumotlar o'z mazmuni bilan yoshlarni milliy ma'naviyatimizni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Masalan, Muqimiyl haqida gapirib turib, Nikolay Ostromov o'z maqolasida uning shaxsiga baho berib shunday degan edi: Shoirlari o'quvchiga qalandarsifat, darveshvash bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg'ulotini taqvo va she'r yozishda zamondoshlari singari zullisonayn edi..."- deb ko'rsatadi.

Muqimiyl lirikasi chuqur optimizm bilan sug'orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlardan. Muqimiyl real muhabbatni, insonni kuylagan. She'rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do'stlik, sadoqat, samimiyyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug'langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan.

Muqimiyl juda oddiy va kambag'allikda hayot kechirgan, hayotining so'nggi yillari kitoblardagi xatolarini to'g'irlash va ularni ko'chirish bilan o'tgan. U 1903 yilning 25 may kuni ellik uch yoshida vafot etadi. Shoirlari tomonidan turli janrdagi 100 dan ziyod she'rlar, shuningdek 30 ga yaqin hajviy asarlar yaratilgan. Muqimiyning hajviy qarashlari ulkan ijtimoiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan. Muqimiyl "Chin yurakdan haqqoniy insongina meni tushunadi" deb yozgan edi. Muqimiyl nomi bilan O'zbekiston ko'chalari, O'zbekiston davlat musiqali teatri, Qo'qon davlat pedagogika instituti va boshqalar nomlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoqubov H., O'zbek demokrat shoiri Muqimiyl, T., 1953
2. Zarifov H., Muhammad Amin Muqimiyl, T., 1955;
3. Karimov F., Muqimiyl. Hayoti va ijodi, T., 1970;
4. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T.. 1975.
5. Karimov G'. Muqimiyl hayoti va ijodi. T., 1970.
6. Ahmedov S. O'zbek demokratik adabiyotida she'riy hikoya. T., 2023
7. Karimov F., O'zbek adabiyoti tarixi, 3kitob, T., 1966, 1975, 1987.